

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGI VA ULARNING MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASHDA TAHLILIIY AMALLARDAN FOYDALANISH

Choriyev Isroil Xamzayevich
TDIU, "Moliyaviy tahlil" kafedrasи dotsenti, PhD
isroil77@rambler.ru

Respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida raqobatdosh korxonalar soni ko‘payib, yalpi ichki mahsulotning muntazam o‘sib borishiga erishilmoqda. Bunday natijalarga erishishda mamlakatimizda yaratilgan qulay investitsion muhit hamda raqobatchilik sharoiti muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, korxonalar moliyaviy holatining yildan-yilga barqarorlashib, investitsion jozibadorligining oshib borishi ham iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish imkonini bermoqda.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy holatini, ularning faoliyati samaradorligini aniqlash, nafaqat, xo‘jalik sub’ektlarining o‘ziga, shuningdek kreditorlar va investorlar uchun ham o‘ta muhim ahamiyatiga ega bo‘lib, ular faoliyati samaradorligini tahlil etish korxona faoliyati ko‘rsatkichlarini barcha qiziquvchilar uchun ochib beruvchi vazifani bajaradi. Moliyaviy tahlil korxonaning moliyaviy ahvolinigina oydinlashtirib bermasdan, balki uning turli faoliyati va istiqbollarini ham ko‘rsatib bera oladi. Shuningdek, investitsiyalarni faol jalb etish uchun, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqish va tahlil etish zarurdir.

Ma’lumki, respublikamizda moliyaviy tahlilni rivojlantirish, isloh qilish iqtisodiyotning bevosita xalqaro munosabatlarga integratsiyalashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu esa respublikamizda moliyaviy tahlilni xalqaro andozalar talablari asosida takomillashtirishni zaruriyat qilib qo‘ymoqda.

Korxonalar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy holati, ularning faoliyati samaradorligi tahlilini takomillashtirish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim deb o‘laymiz:

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy holati tahlili usulini takomillashtirish;
- barcha iqtisodiy o‘quv yurtlarida moliyaviy tahlil fanini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy holati, ularning faoliyati samaradorligi tahlili natijalari bilan qiziqqan manfaatdor organ va tashkilotlarda iqtisodiy tahlil ishlarini samarali tashkil etish;
- moliyaviy tahlilda moliyaviy ko‘rsatkichlarni miqdoriy ifodalash, baholash, ularni iqtisodiy mazmun bilan bog‘lanishda o‘rganish;

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

- moliyaviy tahlil bilan shug'ullanuvchi xodimlar, mutaxassislarda (jumladan, auditorlarda) moliya-xo'jalik faoliyati tahlilining zamonaviy usullarini qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy holati, ularning faoliyati samaradorligi tahlili yakunida korxonalarning moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan zarur tavsiyalar ishlab chiqilishi darkor.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1013-sun qarori bilan "Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o'tkazish Reglamenti" tasdiqlandi. Mazkur Reglamentga muvofiq, "Korxonalar moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlil uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar (mezonlar) qo'llaniladi:

- a) to'lov qobiliyati yoki qoplash koeffitsiyenti — Tqk;
- b) o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti — O'ak;
- v) aktivlarning va xarajatlarning rentabellilik koeffitsiyenti — Ark, Xrk.

Shuningdek, quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlar ham qo'llanilishi mumkin:

- o'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti — O'qk;
- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti — Qfk;
- asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti — Avek.

Ushbu ko'rsatkichlar tahlili asosida, iqtisodiy holatiga ko'ra, korxonalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- a) iqtisodiy barqaror;
- b) iqtisodiy tavakkalchilik;
- v) iqtisodiy nochor:
to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan;
to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lмаган.
iqtisodiy barqaror;"¹.

1-jadval

Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o'tkazish mezonlari²

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy holat nobarqarorligi
Asosiy ko'rsatkichlar	
To'lov layoqati yoki qoplash koeffitsienti (K_{tl}):	$K_{tl} - 1,25$ dan kichik bo'lsa

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1013-sun qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4106617>.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1013-sun qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o'tkazish Reglamenti" asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan. <https://lex.uz/uz/docs/-4106617>.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsenti (K_{at})	$K_{at} -0,2$ dan kam chiqsa
Korxona aktivlari va harajatlari rentabelligi (R_a, R_x)	$R_a, R_x -0$ dan past bo'lsa
Qo'shimcha ko'rsatkichlar	
O'zmablag'lari va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati koeffitsenti ($K_{o'q}$)	$K_{o'q} -1,25$ dan tushib ketgan hollarda
Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalananish koeffitsenti(K_{quv})	$K_{quv} - 0,5$ dan tushib ketganda
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti (K_{esk})	$K_{esk} - 0,5$ dan oshib ketganda

Korxonalar moliyaviy holati, faoliyati uzlusizligi va samaradorligini baholashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015 yil 28 iyulda «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatları va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi 207-sonli qarori bilan qabul qilingan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash muhim ahamiyatga ega.

«Samaradorlikning muhim ko'rsatkichi (KPI) 2016 yilning 1 yanvaridan boshlab Respublikaning barcha hududlarida ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatları, mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar hamda davlat korxonalari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini belgilash, hisobini yuritish joriy qilindi.

Hisoblash yo'li bilan olingen samaradorlikning muhim ko'rsatkich miqdorlari ularning biznes-rejada belgilangan prognoz (maqsadli) miqdorlari bilan hisoblangan va maqsadli miqdorning foizli nisbati tarzida taqqoslanadi.

Barcha samaradorlikning muhim ko'rsatkichi bo'yicha o'rtacha hisoblangan miqdor korxonaning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligining yig'indi ko'rsatkichi sifatida ifodalanadi.

Korxonaning vakolatli boshqaruv organi qaroriga asosan ijro etuvchi organ faoliyati samaradorligi quyidagicha e'tirof etiladi:

Samaradorlikning yig'indi ko'rsatkichi miqdori 40 foizdan kam bo'lsa - qoniqarsiz.

40 foizdan 60 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha bo'lsa — past darajada.

60 foizdan 80 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha bo'lsa — yetarli darajada emas.

80 foizdan 90 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha bo'lsa — o'rtacha darajada.

90 foizdan 100 (ushbu daraja ham kiradi) foizgacha bo'lsa — yetarli darajada.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

100 foizdan oshsa —yuqori darajada»³.

Shuningdek, «davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash, ularning mas'uliyatini oshirish va monitoring tizimini yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yil 9 dekabrda «Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 775-sون qaror qabul qilindi. Mazkur qaror bilan davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimi takomillashtirildi. Jumladan:

korxona samaradorligini baholovchi asosiy ko'rsatkichlarga qo'shimcha tarzda sof tushum va sof foyda rejasi, tannarxni kamaytirish, chet el valyutasiga bo'lgan mustaqillik, mahalliylashtirish va investitsiya dasturlari, eksport hajmining bajarilishi va energiya samaradorligi kabi ko'rsatkichlar joriy etilishi;

SMKning salmoq o'lchovlari qat'iy belgilanishi;

SMK natijalari Agentlik veb-saytida joylashtirilmagan yoki «qoniqarsiz» yoxud «past» bo'lganda ijro organi rag'batlantirilmasligi;

moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va topshirish muddatidan qat'iy nazar, korxonalar har chorakda SMKn hisoblashi va e'lon qilishi belgilandi»⁴.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy qilish sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligi va uzlusizligi, investitsion jozibadorligi va ularning moliyaviy holati to'g'risidagi ishonchli axborotga talab yanada ortadi. Bunday axborot samarali boshqaruv, investitsion va moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Korxonalar faoliyatining samaradorligi va uzlusizligi, moliyaviy holati va investitsion jozibadorligini kompleks baholash uslublarini takomillashtirish asosida boshqaruv qarorlarining samaradorligi ortib, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниқлашда таҳлилий амаллардан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting", Issue 1, February 2023.*
2. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини тақомиллаштириш. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting", Issue 2, April 2023.*
3. Klichev, B.P., Choriev, I. X. (2021). The Issues Of Business Activity Organization In Uzbekistan. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI).Volume 12, Issue 7, July 2021: 4587-4593.- URL:<https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4494>

³ Sh.Mamatov. KPI nima, boshqa tizimlardan afzalligi qanday? <https://old.davaktiv.uz/uz/yangiliklar/assets-news/5945-kpi-nima-bosh-a-tizimlardan-afzalligi-andaj>

⁴ <https://kpi.davaktiv.uz/site/ru/kpi>

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

4. Choriev I.X. Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: «Iqtisod-moliya»nashriyoti, 2021, - 21-26 b.
5. Юлдашев, Ж. А. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ.
6. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 4 (2024), 754–759
7. Кличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАФБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>
8. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
9. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>
10. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199–205.
11. Tulaev, M. (2024). Moliyaviy hisobot konsepsiyalari. *Nordic_Press*, 2(0002).
12. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
13. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>
14. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari, Konferensiya to'plami. Termiz, O'zbekiston. 15-iyun 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>
15. Yakupbaevich, I. J. ., Abrarovich, Y. J. ., Akhtamovich, H. S. ., & Bekmurodova. (2023). COMMERCIAL BANKING, CREDIT OPERATIONS, PROVISION OF COLLATERAL, ASSESSMENT MECHANISMS. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(4), 6–13. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/251>

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

16. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises.* ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>
17. Abdullayev, A., & Djamatov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.
18. Худоёров О.О. (2023). Банк тизимини рақамлаштириш шароитида рақамли банк технологияларини жорий қилиш . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 99–107. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2788>
19. Xudoyorov, O. O. (2023). Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarini tutgan o ‘rni.
20. Odilovich, K. O. (2024). IMPACT OF REMOTE BANKING SERVICES ON BANK INCOME. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 82-86.
21. Klichev, B.P., Tulaev, M.S. (2021). Issues of development of the analysis of business activity in joint-stock companies of Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 11, November 2021, 584-591. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.02539.8>
22. Majidov, J. K. (2019). Ways of improving management of credit portfolio at commercial banks. *International Journal of Research in Social Sciences*, 9(3), 725-736.
23. Мажидов Ж. (2024). Тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш бўйича хориж тажрибаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1463-1467. <https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/3878>